



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 534 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkijonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzall Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sish indikatorlari tahlili	352
Hakimov Anvarjon Abdulloyevich	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farhod Botirovich	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития	363
Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.	



Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
Musayeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
Ibrokhimova Aziza Abbasovna	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
Imomova Kamola Novfal qizi	
"Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)"	385
Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	392
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarinin elektron savdolarining o'rni	398
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Реализация концепции развития рынка зеленой экономики в сфере экономической безопасности Республики Узбекистан.....	401
Юнусова Римма Рахманбердиевна	
Tijorat banklaridan "foyda" solig'ini undirishning bugungi holati.....	408
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	415
Abasova Gulirano Rahmatullo qizi	
Xorijiy tajribalar asosida ekologik tadbirkorlikning innovatsion va investitsion yo'nalishlarini tashkil etish	419
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
Sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish xususiyatlari	424
Raxmonova Feruza Musakulovna	
Turizm sohasida investitsion faoliyat: nazariy asoslar va amaliy yo'nalishlar.....	428
Ergashev Durdonaxon Aziz qizi	
Qashqadaryo viloyatida barqaror turizmning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolar tahlili.....	432
Suyunova Dilnoza Mexridin qizi	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsion resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar.....	436
Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li	
Xususi banklar faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning moliya bozoriga ta'siri	441
Abduqahhorov Asilbek Ahror o'g'li	
Mehnat resurslari tushunchasi, tarkibi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	447
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Xorijiy davlatlar tajribasida moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.....	453
Jabborova Dilafruz	
The impact of exchange rate policy on the financial-monetary system and economic growth.....	459
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
Современные вызовы и модельные подходы к обеспечению конкурентоспособности банковской системы Узбекистана.....	464
Юлдашева С.Ш.	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish yo'llari	470
Ishimova Mohinur Absalomovna	
Innovative pathways for advancing sustainable tourism in Uzbekistan.....	477
Feruz Karimov	



Tijorat banklarida biznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari.....	482
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekistonda sanoat zonalarining rivojlanish bosqichlari va huquqiy-me'yoriy asoslari	488
Vafojev Akmal Ikromovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishda Germaniya tajribasi	493
Pardayeva Maftuna Ulug'bek qizi	
Korxonalar moliyaviy faoliyati bo'yicha auditorlik risklarini xalqaro standartlar asosida baholash	497
Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abduxalil-zoda Ra'no Muzaffar qizi	
Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va ularni pasaytirish usullari	501
Sodiqov Mirahror Abbos o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ahamiyati.....	509
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
The role of small business enterprises in enhancing the well-being of the population in Uzbekistan	513
Djalilova Shaxlo Ismoiljon kizi	
O'zbekistonda IPOlarni tashkil etish jarayonlari tahlili	518
Alikulov Azamat Tuygunovich	
Kichik sanoat zonalarini faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili (Surxondaryo viloyati misolida).....	522
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Hududlarning innovatsion turistik salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	528
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	



HUDUDLARNING INNOVATSION TURISTIK SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali dotsenti

ORCID: 0009-0001-6556-3424

Email: o.khaitov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududlarida innovatsion turistik salohiyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi an'anaviy turizm markazlari hamda Farg'ona vodiysi va Qoraqalpog'iston kabi yangi yo'nalishlarning turizm salohiyati statistik ma'lumotlar, hududiy qiyosiy tahlil va innovatsion amaliyotlar asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalarida turizmدا innovatsion yondashuvlarning joriy holati aniqlanib, infratuzilma cheklovlari, investitsiya yetishmasligi va kadrlar malakasi kabi muammolar ko'rsatib o'tilgan. Maqolada innovatsion faollikni kuchaytirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va hududiy turizmni diversifikatsiya qilish bo'yicha konseptual taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, innovatsion salohiyat, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, hududiy rivojlanish, raqamli platformalar, ekoturizm, investitsiya, infratuzilma, kadrlar salohiyati, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the organizational and economic mechanisms for developing the innovative tourism potential of Uzbekistan's regions. The tourism potential of traditional centers such as Samarkand, Bukhara, and Khiva, as well as emerging destinations like the Fergana Valley and Karakalpakstan, is examined based on statistical data, regional comparative analysis, and innovative practices. The study identifies the current state of implementing innovative approaches in tourism and highlights key challenges, including infrastructure limitations, insufficient investment, and a shortage of qualified personnel. The article develops conceptual proposals and recommendations aimed at enhancing innovation activity, fostering public-private partnerships, improving service quality, and diversifying regional tourism.

Key words: tourism, innovative potential, organizational and economic mechanism, regional development, digital platforms, ecotourism, investment, infrastructure, human capital, public-private partnership.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы организационно-экономические механизмы развития инновационного туристического потенциала регионов Узбекистана. Рассмотрен туристический потенциал традиционных центров, таких как Самарканд, Бухара и Хива, а также новых направлений – Ферганской долины и Каракалпакстана – на основе статистических данных, регионального сравнительного анализа и инновационных практик. В результате исследования выявлено текущее состояние внедрения инновационных подходов в туризме, а также обозначены проблемы, связанные с ограниченностью инфраструктуры, недостатком инвестиций и квалифицированных кадров. В статье разработаны концептуальные предложения и рекомендации по усилению инновационной активности, развитию государственно-частного партнёрства, повышению качества услуг и диверсификации регионального туризма.

Ключевые слова: туризм, инновационный потенциал, организационно-экономический механизм, региональное развитие, цифровые платформы, экотуризм, инвестиции, инфраструктура, кадровый потенциал, государственно-частное партнёрство.

KIRISH

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida turizm sohasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Turizm nafaqat iqtisodiy o'sish va yangi ish



o'rinlari yaratishga xizmat qiladi, balki hududlarning xalqaro miqyosdagi imijini mustahkamlash, investitsiya jalb qilish va madaniy almashinuvni rivojlantirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish va uni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston misolida qaranganda, oxirgi yillarda turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi" va boshqa davlat dasturlari qabul qilinib, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish, xorijiy va ichki turizmni rag'batlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy asoslar mustahkamlanmoqda. Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, turizm sohasida mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar barcha hududlarda bir xil samaradorlik bermayapti, ayrim hududlarda turistik resurslar yetarli darajada iqtisodiy aylanishga jalb qilinmagan.

Hududiy turizmning innovatsion rivojlanishi, eng avvalo, yangi boshqaruv modellarini, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini, raqamli texnologiyalarni keng qo'llashni va mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtirokini talab etadi. Zero, turizmning innovatsion salohiyatini oshirish hududiy iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, yangi turistik mahsulotlarni shakllantiradi va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu sababli, hududlarning innovatsion turistik salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbdur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning innovatsion turistik salohiyatini rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy miqyosda ko'plab olimlar e'tiborini tortib kelmoqda. Turizmning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, hududiy innovatsion klasterlar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish borasida qator nazariy va amaliy ishlanmalar mavjud.

Xalqaro tajribada M. Porterning klaster nazariyasi turizmga hududiy rivojlanishni ta'minlashning muhim asosi sifatida qaraladi. Olimning ta'kidlashicha, hududiy klasterlar resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi [1].

Shu bilan birga, UNWTOning yillik hisobotlarida turizmni raqamlashtirish, smart-platformalar va elektron boshqaruv tizimlarining joriy etilishi innovatsion salohiyatni rivojlantirishning muhim sharti sifatida qayd etilgan [2].

O'zbekiston olimlari ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, R. Abdullaev o'z tadqiqotlarida hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi [3]. Sh. Turobovning ilmiy ishlari esa turizmga raqamli texnologiyalar va elektron xizmatlarning joriy etilishi hududiy turizm klasterlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi [4].

Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda B. Hawkins va R. Kostić kabi olimlar innovatsion turizm boshqaruvi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish barqaror rivojlanishning muhim sharti ekanini asoslab bergan [5].

Hududlarning innovatsion turistik salohiyatini rivojlantirishni o'rganishda tizimli, funksional, komparativ va empirik yondashuvlardan foydalaniladi. Tizimli yondashuv hududiy turizmni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy jihatlar bilan bir butun tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu yondashuv hudud infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sohasi, turizm subyektlari hamda davlat boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

Funksional yondashuv innovatsion turizmning tashkiliy, iqtisodiy, marketing va ijtimoiy funksiyalarini aniqlashga yordam beradi. Xususan, turizm xizmatlari sifatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy brendni shakllantirish, investitsiyalarni jalb etish va raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish funksional yondashuvning asosiy yo'nalishlaridir.

Komparativ yondashuv milliy va xorijiy tajribalarni taqqoslash orqali samarali mexanizmlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, Turkiya, Ispaniya yoki Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining hududiy turizmni rivojlantirishdagi innovatsion tajribasi O'zbekiston hududlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Empirik yondashuv esa statistik ko'rsatkichlar, ekspert baholari va amaliy loyihalar asosida hududiy turizmga innovatsion jarayonlarning real natijalarini o'rganishga imkon beradi. Bu orqali hududlarning turizm salohiyati, xizmatlar eksporti hajmi, xorijiy sayyohlar oqimi va yangi turistik loyihalarning samaradorligi aniqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada hududlarning innovatsion turistik salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tadqiq qilinadi. Ma'lumotlar rasmiy statistika, korxona va turizm tashkilotlari hisobotlari, shuningdek mutaxassislar bilan intervyu va so'rovlar orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar iqtisodiy tahlil, solishtirma indikatorlar va strategik modellar yordamida tahlil qilinib, hududlar bo'yicha salohiyatni oshirish yo'llari aniqlanadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston hududlarida turizm sohasi innovatsion rivojlanish tendensiyalarini namoyon qilmoqda. Mamlakat bo'ylab xorijiy sayyohlar oqimi ortib borayotganligi, xizmatlar eksporti hajmining kengayishi va hududiy infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi turizm salohiyatining innovatsion rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, davlat siyosatida turizmni ustuvor sohalardan biri sifatida belgilash tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish uchun muhim sharoit yaratmoqda. Biroq, infratuzilma cheklovlari, investitsiya yetishmovchiligi va malakali kadrlar taqchilligi innovatsion faollikning to'liq namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston hududlari bo'yicha xorijiy turistlar soni (2022–2023, ming kishi)

Hudud	2022-yil	2023-yil	O'sish sur'ati (%)
Samarqand	980	1 450	+47,9
Buxoro	640	950	+48,4
Xiva (Xorazm)	420	670	+59,5
Toshkent	1 100	1 480	+34,5
Farg'ona vodiysi	220	360	+63,6
Qoraqalpog'iston (Mo'ynoq)	70	120	+71,4
Jami	3 430	5 030	+46,6

O'zbekiston hududlarida xorijiy turistlar oqimining 2022–2023-yillar davomida sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Umumiy hisobda xorijiy sayyohlar soni 3,43 million kishidan 5,03 million kishiga yetib, 46,6 foizlik o'sish qayd etilgan. Bu esa pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasining tiklanishi va innovatsion tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samarali qo'llanilayotganidan dalolat beradi.

Samarqand shahri 2023-yilda 1,45 million xorijiy sayyoh qabul qilib, yetakchi turistik markaz sifatida o'z mavqeini mustahkamladi. 47,9 foizlik o'sish shaharda zamonaviy turizm infratuzilmasining rivojlanishi, xalqaro darajadagi forum va tadbirlarning o'tkazilishi hamda transport-logistika imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi.

Buxoro shahri 950 ming nafar turist bilan ikkinchi o'rinni egallab, 48,4 foiz o'sishni qayd etdi. Bu natija shaharning tarixiy-madaniy meros obyektlari va "Ipak yo'li" brendini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan innovatsion dasturlar samarasini aks ettiradi.

Xiva (Xorazm viloyati) 59,5 foizlik yuqori o'sish sur'ati bilan ajralib turib, 670 ming turistni jalb qilgan. Bu hududda YuNESKO merosi sifatida e'tirof etilgan "Ichan-Qal'a" majmuasi va yangi mehmonxona loyihalarining ishga tushirilishi turistlar oqimini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Toshkent shahri ham turizm markazlari orasida yetakchilik qilmoqda. 2023-yilda 1,48 million sayyoh tashrif buyurib, 34,5 foizlik o'sishni ta'minladi. Poytaxtning xalqaro transport tuguni sifatida rivojlanishi, yangi aeroport majmuasi hamda biznes-turizm imkoniyatlari Toshkentning turizm strategik ahamiyatini belgilab berdi.

Farg'ona vodiysi hududlari 2022-yilga nisbatan 63,6 foizga ko'payib, 360 ming turistni qabul qildi. Bu hududda agro-turizm, hunarmandchilik, an'anaviy festivallar va mahalliy gastronomik yo'nalishlarning rivojlanishi turizm oqimini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, xususan Mo'ynoq shahri, 71,4 foizlik eng yuqori o'sish sur'atini qayd etdi. Bu hududning ekologik turizm, Aral dengizi fojeasi bilan bog'liq memorial majmualar va ekstremal turizm yo'nalishlari orqali xalqaro e'tiborni tortayotgani yaqqol seziladi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda barcha hududlarda turizm oqimining ortishi kuzatilgan bo'lsa-da, o'sish sur'atlari hududlar kesimida farqlanadi. Poytaxt va yirik tarixiy markazlarda turistlar soni ko'proq bo'lsa, yangi rivojlanayotgan hududlarda o'sish sur'ati yuqoriligi kuzatilmoqda. Bu esa hududlarning turizm salohiyatini kengaytirish, innovatsion mexanizmlarni tatbiq etish va mahalliy turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).



2-jadval. Hududlar bo'yicha turizm xizmatlari eksporti (2023-yil, mln AQSh dollari)

Hudud	Xizmatlar eksporti (mln \$)	YAIMdagi ulushi (%)
Samarqand	520	5,2
Buxoro	310	4,9
Xiva (Xorazm)	180	3,7
Toshkent	740	2,4
Farg'ona vodiysi	95	1,8
Qoraqalpog'iston	40	0,9
Jami	1 885	3,1

2023-yilda O'zbekiston hududlari bo'yicha turizm xizmatlari eksporti jami 1 885 mln AQSh dollarini tashkil etib, mamlakat YalMida o'rtacha 3,1 foiz ulushga ega bo'lgan. Bu natija turizmning nafaqat hududiy iqtisodiy rivojlanish, balki milliy iqtisodiyot tarkibidagi o'rni ham tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Samarqand viloyati 520 mln dollarlik eksport hajmi va 5,2 foizlik YalM ulushi bilan respublika bo'yicha yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu natijaga xalqaro miqyosda brendga aylangan tarixiy obidalar, "Ipak yo'li" yo'nalishining rivojlantirilishi, shuningdek, zamonaviy turistik infratuzilmaning joriy qilinishi ta'sir ko'rsatmoqda.

Buxoro viloyati 310 mln dollarlik xizmatlar eksporti bilan ikkinchi o'rinda turib, YalMdagi ulushi 4,9 foizni tashkil etadi. Bu hududda madaniy meros obyektlari, ziyorat turizmi hamda an'anaviy hunarmandchilik asosidagi turizmning keng rivojlanishi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xiva (Xorazm viloyati) 180 mln dollarlik eksport hajmi va 3,7 foizlik YalM ulushi bilan yuqori salohiyatga ega hududlardan biridir. Xususan, YuNESKO merosi sifatida e'tirof etilgan Ichan-Qal'a majmuasi va turizm infratuzilmasida amalga oshirilgan modernizatsiya loyihalari eksport ko'rsatkichlarining o'sishiga sabab bo'lgan.

Toshkent shahri 740 mln dollarlik xizmatlar eksporti bilan mutlaq yetakchi hisoblanadi, biroq YalMdagi ulushi atigi 2,4 foizni tashkil etadi. Bu poytaxt iqtisodiyotining hajmi katta bo'lgani sababli nisbiy ulushning past ko'rinishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, Toshkentda biznes-turizm, xalqaro anjumanlar va zamonaviy xizmat turlarining mavjudligi turizm eksportining asosiy drayverlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Farg'ona vodiysi 95 mln dollarlik eksport ko'rsatkichiga ega bo'lib, YalMdagi ulushi 1,8 foizni tashkil etadi. Hududda asosan agro-turizm, an'anaviy festival va milliy hunarmandchilik asosidagi yo'nalishlar iqtisodiy samara bermoqda. Ammo bu ko'rsatkichlar salohiyatga nisbatan hali past darajada ekanini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 40 mln dollarlik eksport hajmi bilan eng kam ko'rsatkichga ega bo'lsa-da, hudud uchun bu natija muhim ahamiyat kasb etadi. Mo'ynoq va Aral dengizi atrofida shakllanayotgan ekologik turizm, ekstremal sayohatlar va memorial obyektlar kelgusida eksport hajmining sezilarli oshishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, hududlar kesimida turizm xizmatlari eksportining rivojlanishi notekisdir. Toshkent, Samarqand va Buxoro asosiy ulushni shakllantirayotgan bo'lsa, yangi rivojlanayotgan hududlarda hali katta foydalanilmagan salohiyat mavjud. Shu sababli hududiy turizmni diversifikatsiya qilish, investitsiya oqimini kengaytirish va innovatsion xizmat turlarini joriy etish mamlakatning umumiy turizm eksportini barqaror oshirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

O'zbekiston turizm sohasining samarali rivojlanishini ta'minlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning roli beqiyosdir. Mavjud mexanizmlar, avvalo, davlat, xususiy sektor va hududiy boshqaruv organlarining o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Davlat ishtiroki ko'proq turizm infratuzilmasiga investitsiyalar jalb qilish, elektron viza tizimini joriy etish hamda hududiy turizm dasturlarini moliyalashtirishda namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, davlat siyosati turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda huquqiy va institutsional asoslarning mustahkamlanishi kuzatilmoqda.

Xususiy sektor esa asosan mehmonxonalar, restoranlar, transport xizmatlari, ekskursiya markazlari va turistik startap loyihalarni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Bu esa hududlarda xizmatlar sifatini yaxshilash va turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan xususiy tashabbuslar sohaning innovatsion rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududiy boshqaruv tizimi esa mahalliy hokimiyat organlari hamda turizm qo'mitalari faoliyatida o'z ifodasini topmoqda. Ular hududiy turizm dasturlarini amalga oshirish, investitsion loyihalarni muvofiqlashtirish va mahalliy hamjamiyatlarni turizm jarayonlariga jalb etish orqali muhim rol o'ynamoqda.

Sohada innovatsion rivojlanishni yanada kuchaytirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport-logistika tizimini rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, investitsiya resurslarini jalb qilish va moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish turizm loyihalarini keng ko'lamda amalga oshirishni ta'minlaydi. Malakali kadrlar tayyorlash, xorijiy tillarni o'rgatish va zamonaviy



servis standartlarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va turizm salohiyatini maksimal darajada amalga oshirish imkoniyati mavjud (3-jadval).

3-jadval. Hududiy turizm markazlari va yangi rivojlanayotgan hududlarning qiyosiy tahlili

Ko'rsatkichlar	Samarqand	Buxoro	Xiva	Farg'ona vodiysi	Qoraqalpog'iston
Xorijiy turistlar soni (2023, ming)	1 450	950	670	360	120
Turizm eksporti (mln \$)	520	310	180	95	40
Innovatsion yechimlar	"Silk Road Tour" portali, smart-gid xizmatlari	Onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lov	Madaniy merosni AR texnologiyasi orqali targ'ib qilish	Ekoturizm va agro-turizm startaplari	Aralbo'yi ekoturizm loyihalari
Asosiy muammolar	Transport yuklamasi	Mehmonxona sig'imi cheklangan	Kadrlar malakasi yetishmasligi	Investitsiya yetishmasligi	Infratuzilma zaifligi

3-jadval ma'lumotlari O'zbekistonning turizm bo'yicha an'anaviy markazlari — Samarqand, Buxoro, Xiva hamda yangi rivojlanayotgan yo'nalishlar — Farg'ona vodiysi va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi farqlarni yaqqol ko'rsatib beradi.

Birinchidan, xorijiy turistlar oqimi bo'yicha Samarqand 2023-yilda 1,45 mln kishi bilan mutlaq yetakchi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich Buxoroga nisbatan qariyb 1,5 baravar, Xivaga nisbatan esa ikki baravardan ortiq ko'p. Farg'ona vodiysi 360 ming turist jalb etib, yangi markaz sifatida tez sur'atda rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Qoraqalpog'iston esa 120 ming turist bilan eng past natijaga ega, ammo barqaror o'sish dinamikasi kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, turizm xizmatlari eksporti ko'rsatkichida Toshkentdan keyingi yirik markaz sifatida Samarqand (520 mln \$) ajralib turadi. Buxoro (310 mln \$) va Xiva (180 mln \$) an'anaviy yo'nalishlar sifatida o'z salohiyatini namoyon qilmoqda. Farg'ona vodiysining eksport hajmi 95 mln \$ bo'lsa, Qoraqalpog'iston 40 mln \$ bilan eng kichik ulushga ega. Bu ko'rsatkichlar hududlar bo'yicha turizmning iqtisodiy samaradorlik darajasini yaqqol aks ettiradi.

Uchinchidan, innovatsion yechimlarni qo'llash darajasi hududlar bo'yicha turlicha:

Samarqand — raqamli platformalar ("Silk Road Tour" portali) va smart-gid xizmatlari bilan innovatsion yondashuvda yetakchilik qilmoqda.

Buxoro — asosan onlayn bronlash va elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda.

Xiva — AR (augmented reality) texnologiyasi yordamida madaniy merosni targ'ib qilish bo'yicha o'ziga xos tajribaga ega.

Farg'ona vodiysi — ekoturizm va agro-turizm startaplari orqali turizmni diversifikatsiya qilmoqda.

Qoraqalpog'iston — Aralbo'yi ekoturizm loyihalari asosida ekologik turizmni shakllantirishga urinmoqda.

To'rtinchidan, asosiy muammolar hududlar bo'yicha farq qiladi:

Samarqandda transport yuklamasi muammo bo'lib qolmoqda.

Buxoro turizm infratuzilmasida mehmonxona sig'imi yetishmovchiligi bilan to'qnash kelmoqda.

Xivada xorijiy tillarni biladigan va zamonaviy servis standartlariga mos kadrlar taqchilligi sezilmoqda.

Farg'ona vodiysi uchun asosiy muammo — investitsiya yetishmasligi.

Qoraqalpog'istonda esa infratuzilma zaifligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, turizm markazlari (Samarqand, Buxoro, Xiva) barqaror rivojlanayotgan bo'lsa-da, ularning muammolari asosan infratuzilma va kadrlar bilan bog'liq. Yangi yo'nalishlar (Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston) esa katta salohiyatga ega bo'lib, ekoturizm va innovatsion loyihalar asosida o'sish imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Shu bois, davlat va xususiy sektor hamkorligida hududiy farqlarni hisobga olgan holda moslashtirilgan strategiyalar ishlab chiqish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida hududlar bo'yicha xorijiy turistlar oqimi va turizm xizmatlari eksportida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Samarqand, Buxoro va Xiva singari an'anaviy markazlar o'zining madaniy meros obidalarini, xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanganligi hamda



innovatsion yechimlarni joriy etishi orqali yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysi va Qoraqalpog'iston kabi yangi turizm yo'nalishlari ekoturizm, agro-turizm va ekologik loyihalar asosida o'zining istiqbolli salohiyatini namoyish qilmoqda.

Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport tizimini kengaytirish va mehmonxona sig'imini oshirish, shuningdek, kadrlar malakasini rivojlantirish orqali hududlar bo'yicha turizm salohiyatini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Innovatsion yondashuvlarni kengaytirish va investitsiya jalb etish orqali barcha hududlar turizmning barqaror o'sishidan samarali foydalana oladi.

Mavjud muammolarni yechish uchun quyidagi takliflar keltiriladi:

Transport va infratuzilmani rivojlantirish — turistik hududlarda avtomobil va temiryo'l transportini modernizatsiya qilish, aeroport va logistika xizmatlarini yaxshilash orqali turistlar uchun qulay muhit yaratish.

Investitsiya jalb qilish — davlat-xususiy sheriklik asosida mehmonxona, restoran, transport va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga xorijiy va mahalliy sarmoyalarni keng jalb etish.

Kadrlar salohiyatini oshirish — xorijiy tillarni biladigan, zamonaviy servis standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun turizm kollejlari va oliy o'quv yurtlarida yangi ta'lim dasturlarini joriy etish.

Innovatsion loyihalarni kengaytirish — raqamli turizm platformalari, AR/VR texnologiyalari, smart-gid xizmatlarini hududlar bo'yicha keng joriy etish.

Hududiy turizm strategiyasini moslashtirish — har bir hududning xususiyatidan kelib chiqib, ixtisoslashgan turizm yo'nalishlarini (ekoturizm, agro-turizm, madaniy turizm, ekstremal turizm) rivojlantirish.

Xizmatlar sifatini oshirish — xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish va xizmat ko'rsatish sifati ustidan monitoringni kuchaytirish.

Reklama va marketing faoliyatini kengaytirish — O'zbekiston brendini xalqaro miqyosda ilgari surish, internet marketing va ijtimoiy tarmoqlar orqali turistik hududlarni faol targ'ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
2. UNWTO. Tourism Innovation Report 2022. Madrid: World Tourism Organization, 2022.
3. Abdullaev R. Hududiy turizmning iqtisodiy rivojlanish omillari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
4. Turobov Sh. O'zbekistonda raqamli turizm va innovatsion boshqaruv. Ilmiy maqola, "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, 2021, №4.
5. Hawkins D., Kostić R. Tourism Management and Regional Development. London: Routledge, 2019.
6. P. Vodachek L., Vodachkova O. Korxonada innovatsiyalarni boshqarish strategiyasi: qisqacha. per. slovak tilidan. / Muallif. Muqaddima V. S. Rapoport. M Iqtisodiyot, 2004.365 b.
7. Квартальнов В.А. Туризм. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 368 с. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [https:// e.lanbook.com/book/69175](https://e.lanbook.com/book/69175)
8. Dwyer L, Tomjenovic R., Corak S. Evolution of Destination Planning and Strategy: The Rise of Tourism in Croatia. Palgrave Macmillan, Cham, 2017, p 43.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>